

I-III ASRLARDA XRISTIANLIK ASKETIZMINING SHAKLLANISH

JARAYONLARI

Gulnora Xudoyberganova,

“Dinshunoslik va jahon dinlarini qiyosiy o‘rganish UNESCO” kafedrası
katta o‘qituvchisi, PhD O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada I-III asrlarda xristianlik asketizmining shakllanish jarayonlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: xristianlik, asketizm, “buyuk ta’qiblar”, din.

Xristianlikning ilk davrlarini, aniqrog‘i I asr oxiridan IV asrgacha bo‘lgan vaqt oralig‘ini “ta’qiblar davri” deb atash mumkin. Yahudiylar xristianlikni xavfli sekta sifatida qabul qilganlar va milodiy 64-yilgacha ilk xristianlarni ta’qib qilganlar. Bu davrda Rim hukumati xristianlikni yahudiylikning yangi yo‘nalishi sifatida ko‘rgan. Keyinchalik bu ta’limotning yoyilishi, ta’limot g‘oyasining Rim imperiyasidagi mavjud dinlar (butparastlik, ko‘xudolik) ga zid jihatlari hukumat tomonidan ta’qib qilinishiga sabab bo‘lgan asosiy omillardan biridir. Xristianlik tarixidagi “buyuk ta’qiblar” haqida afrikalik notiq Lusiy Syesiliy Firmian Laktansiy o‘zining “О смертях преследователей” [1:78] risolasida ma’lumot beradi. Laktansiy I – IV asrlar oralig‘ida kuzatilgan ta’qiblarni quyidagi tartibda keltiradi:

Imperator Neron davrida boshlangan ta’qib (64 y.);

Imperator Domisian 81- yil;

Imperator Trayan 99-yil;

Imperator Mark Avreliy 168-yil;

Imperator Septimi Sever 192-yil;

Imperator Maksimin 235-yil;

Imperator Deki 250-yil;

Imperator Valerian 257-yil;

Imperator Avrelian 272-yil;

Imperatorlar Diokletian va Galeriy davridagi “Buyuk ta’qib” (303-313 yillar).

Qariyb uch asr davom etgan ta’qiblarda dastlabki xristianlarning aksariyati tog‘lardagi g‘orlarda, sahrolarda, shuningdek katakombalarda jon saqlashga majbur bo‘lganlar [2:16]. Katakomba (lot. «catacumba») – yunoncha chuqur, bo‘shliq ma’nolarini angalatadi. Ilk bor bu atama Grigoriy Dvoyeslov tomonidan Rimdagi avliyo Sevastian bazilikasining yerosti inshootiga nisbatan ishlatilgan, ularni yerosti shahari deb atash mumkin. Katakombalar boshqa davrlarlar hududidan, jumladan, Ispaniya, Fransiya, Peru, Chexiya, Avstriya, Irlandiyadan ham topilgan. Lekin xristianlik tarixida Rim katakombalari alohida qiymatga ega. Rim

katakombalari xristianlar uchun ta'qiblar vaqtida boshpana vazifasini bajargan. Bu yerda cho'qintirish, poklanish (yevxaristiya), Muqaddas kitobni o'qish kabi amaliyotlar bilan mashg'ul bo'lganlar, shuningdek bu maskanlardan qabriston sifatida ham foydalanilgan.

Ta'qiblar xristianlikning rivojlanishiga, xususan, cherkov ilohiyoti va tashkiliy tuzilishiga ta'sir ko'rsatgan. Bundan tashqari aynan mana shu davrda avliyolar va shahidlar maqomi shakllanishi, turli apologetik manbalar paydo bo'lishi xristianlikning tarqalish ko'lamiga hissa qo'shdi.

II-III asrlarda asketizmning o'ziga xos va yangi ko'rinishlaridan biri sifatida bo'ydoqlik ideali shakllandi. Uning nazariy asoslari havoriy Pavelning I korfagenliklarga yo'llagan maktubida ifodalangan (I kor.7). Havoriy Pavel: "Bo'ydoq Xudo haqida qayg'uradi, oilali esa dunyo haqida" mazmunidagi qarashlarini ilgari surib, xristianlarning betashvish bo'lishlarini istashini aytadi. Boylikka o'chlik Pavel tomonidan barcha yovuzliklarning ildizi sifatida qaraladi. Havoriy Iakov yer boyliklarini quyosh jazirasida sochiladigan o'simliklarga qiyoslaydi [3:29].

Uzoq davom etgan ta'qiblardan so'ng IV asrga kelib, 313-yilda Rim imperatori Konstantin tomonidan olib borilgan islohotlarga ko'ra xristianlik Rimda boshqa dinlar bilan teng maqomni qo'lga kiritdi, hattoki ba'zi ustunliklarga ham ega bo'ldi. Cherkovga berilgan erkinliklar natijasida xristianlar orasida ba'zi ichki bo'linishlar (ijtimoiy tabaqada, raqib davlatlarning xristianlikni qabul qilgan vakillari, xristianlikning mohiyatini yaxshi anglamaganlarning cherkovga kirishi, shuningdek, cherkov tarkibida ko'plab butparastlarning ham bo'lishi) kuzatilgan. Shu bilan birga xristianlarning turmush tarzi dastlabki xristian dindorlar hayotidan tubdan farq qila boshladi. Cherkovning Rim hukumati bilan hisoblashishi, jamiyatning ba'zi illatlarini qabul qilish holatlari kuzatilgan. Umuman olganda bu vaziyatda xristianlikning ma'lum ma'noda "dunyoviylashuvi" ro'y berdi. Bu esa o'sha davrdagi xudojo'y xristianlar orasida zohidlar sonining ortishi, dunyodan voz kechishlik, diqqatni ilohiylikka yo'naltirish uchun jamiyatdan ajralish kabi holatlarining ko'lami ortishiga turtki bo'ldi. Dastlab asketlar amaliyotlarida oilada qolish, begonalar bilan aloqani uzish, ibodat qilish uchun cherkov yaqinida hujralar (kelya) paydo qilish holatlari kuzatilgan. Asketizmning bu ko'rinishlari Yunonistonda uzoq vaqt saqlanib qoldi.

Dastlabki ikki (I-II) asrda asketik hayot tarzining barcha ko'rinishlarida tashkiliy jihatdan uyushish kuzatilmagan, asketlar (zohidlar) bir-biridan yakka holda yashaganlar, qat'iy belgilangan tartib yoki normaga asoslangan biror jamoa yoki uyushma tuzilmagan. III asr oxiriga kelib esa zohidlik aniqroq xarakterga ega bo'la boshladi. Xristian asketlari o'z ibodatlarini dunyodan (ijtimoiy hayotdan) uzoqlashgan holda amalga oshirishni ma'qul bilganlar. Shuning uchun ular shahar, qishloqlarni tark etib, tog'lar va sahrolarga o'rtnashganlar. Dunyodan (ijtimoiy hayot) shu yo'l bilan uzoqlashganlarni anaxoret (lot. anchorite) va yeremitlar (lot. hermit) deyiladi. Imperator Deki (250 y.) davridagi quvg'inlar

ta'sirida dastlabki xristianlar orasida asketlik hayot tarzini (anaxoretlikni) ma'qul ko'ruvchilar soni oshib ketishi kuzatilgan [4:30].

Umuman olganda, xristianlikning dastlabki asrlarini asketik amaliyotlarning to'liq tizimi deb atash mumkin emas. Zero, bir necha asrlar davomida, asketlarning ko'pchiligi jamiyatdan ajralmadi va bu birinchi uch asr asketizmining keyingi davrlar an'analari o'rtasidagi muhim farqlaridan biri hisoblanadi.

Иқтибослар/ Сноски/References:

- [1] Лактанций. О смертях преследователей /Перевод с латинского языка, комментарии, указатели и библиографический список В. М. Тюленева. – СПб.: Алетейя, 1998. – 279 с.
- [2] Катакомбы / протоиер. Павел Матвеевский. - Москва : Сибирская Благовонница, 2012. – 60 с
- [3] Корпачев П.А. Аскетизм в христианстве I века. Вестник Челябинского государственного университета, 2016. – С-29.
- [4] Корпачев П.А. Аскетизм в христианстве I века. Вестник Челябинского государственного университета, 2016. С-30